

## **TALABALAR HAYOTIDA MULOQOT LINGVISTIKASI**

*Nabiyeva Yulduz*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada talabalar hayotida muloqot lingvistikasi hamda uning xususiyatlari xususida so'z yuritilgan. Norasmiy muloqot va uning ta'siri mavzusi atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, lingvistika, real hayot, talaba, strategiya, sleng, jargon, argo, norasmiy liderlik, tanqidiy fikrlash, til, bevosita, bilvosita.

### **ANNOTATION**

This article discusses communicative linguistics in the life of students and its features. The topic of informal communication and its impact is covered in detail.

**Keywords:** communication, linguistics, real life, student, strategy, slang, jargon, argot, informal leadership, critical thinking, language, direct, indirect.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается коммуникативная лингвистика в жизни студентов и ее особенности. Подробно освещается тема неформального общения и его влияние.

**Ключевые слова:** общение, лингвистика, реальная жизнь, студент, стратегия, сленг, жаргон, арго, неформальное лидерство, критическое мышление, язык, прямой, косвенный.

### **Kirish**

Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Har bir davrda til jamiyat

taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanadi. Ayniqsa, yoshlar va talabalar nutqi til taraqqiyotining eng faol va oʻzgaruvchan qatlamini tashkil etadi. Shu bois talabalar muloqotida qoʻllaniladigan jargon, argo, sleng va varvarizm kabi birliklarni ilmiy jihatdan oʻrganish dolzarb masalalardan biridir.

Oʻzbek tilshunosligida leksikaning ijtimoiy qatlamlari masalasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Shavkat Rahmatullayev oʻzining Hozirgi oʻzbek adabiy tili asarida tilning leksik tarkibi, ijtimoiy-chegaralangan qatlamlari hamda adabiy meʼyor masalalarini atroflicha yoritgan. Shuningdek, E.Begmatov Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari nomli monografiyasida oʻzbek tilining lugʻat boyligini ijtimoiy va uslubiy jihatdan tasniflab, jargon, argo va boshqa qatlamlarni ilmiy asosda tahlil qilgan. A.Nurmonov va hammualliflar tomonidan yaratilgan darsliklarda ham ijtimoiy leksika masalalari keng yoritilgan.

Nutq madaniyati va adabiy meʼyor muammolari esa N.Mahmudov asarlarida chuqur tadqiq qilingan boʻlib, unda varvarizm hodisasi, chet soʻzlarni nooʻrin qoʻllash masalasi va nutqning tozaligi muhim mezon sifatida koʻrsatib berilgan. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan esa jamoada rasmiy va norasmiy liderlik masalalari E.Gʻoziyev hamda G.M.Andreyeva tadqiqotlarida oʻz aksini topgan. Bu esa til va ijtimoiy munosabatlarning oʻzaro bogʻliqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur mavzuni oʻrganish bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, talabalar nutqi til taraqqiyotining zamonaviy bosqichini aks ettiradi. Yangi soʻzlar, sleng birliklar va oʻzlashmalar aynan yoshlar nutqida faol shakllanadi va kengayadi. Ikkinchidan, varvarizm va ortiqcha oʻzlashmalarning koʻpayishi adabiy til meʼyorlariga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu sababli ularni ilmiy asosda tahlil qilish va baholash zarur. Uchinchidan, talabalar muhitida muloqot jarayonida shakllanadigan norasmiy liderlik hodisasi kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy faoliyat bilan bevosita bogʻliqdir.

Bugungi globallashuv davrida muloqot inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, talabalar hayotida muloqot nafaqat oddiy axborot almashish vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va kasbiy shakllanish omili hamdir. Muloqot lingvistikasi esa ana shu jarayonning til vositalari orqali qanday amalga oshishini oʻrganadi. Talabalar muhitida nutq madaniyati, soʻz tanlash, ohang, uslub va kommunikativ strategiyalar katta ahamiyat kasb etadi.

Muloqot lingvistikasi — tilning real hayotdagi qoʻllanish jarayonini, yaʼni insonlar oʻrtasidagi bevosita va bilvosita aloqa shakllarini oʻrganadigan yoʻnalishdir.

Bu soha faqat grammatik qoidalar bilan cheklanmaydi, balki nutq vaziyati, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei, ruhiy holati va maqsadini ham hisobga oladi.

Talabalar hayotida muloqot turli shakllarda namoyon bo'ladi: auditoriyadagi savol-javoblar, guruhli muhokamalar, do'stlar davrasidagi suhbatlar, rasmiy chiqishlar, onlayn yozishmalar va boshqalar. Har bir vaziyat o'ziga xos til birliklari va uslubni talab qiladi. Talabalar nutqi odatda erkin, jonli va zamonaviy bo'ladi. Unda: So'zlashuv uslubiga xos qisqartmalar, emotsional ifodalar, sleng va jargon elementlari, inglizcha yoki boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar keng qo'llanadi.

Sleng<sup>1</sup> — ma'lum ijtimoiy guruh, ayniqsa yoshlar orasida keng qo'llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan, adabiy til me'yoriga kirmaydigan norasmiy til birliklaridir. Sleng jargon bilan yaqin tushuncha bo'lsa-da, undan farqli ravishda ko'proq hissiylik va ifodaviylikni kuchaytirish maqsadida ishlatiladi. Sleng birliklar nutqqa jonlilik, samimiylik va zamonaviylik ohangini beradi. Ular ko'pincha tez paydo bo'ladi va vaqt o'tishi bilan iste'moldan chiqib ketishi mumkin. Masalan, talabalar nutqida “zo'r”, “gap yo'q”, “bomba”, “klass”, “top” kabi birliklar ijobiy baho ifodalovchi sleng so'zlar hisoblanadi. Shuningdek, “charchadim ketdim”, “miyani yedi” kabi iboralar ham norasmiy ekspressiv ma'noda qo'llanadi. Demak, sleng — bu tilning norasmiy, hissiy va zamonaviy qatlamini tashkil etuvchi birliklar majmuasidir.

Jargon<sup>2</sup> — ma'lum bir ijtimoiy guruh, kasb egalari yoki yoshlar tomonidan qo'llaniladigan, adabiy til me'yoriga kirmaydigan, lekin umumiy tushunishga ega bo'lgan so'z va iboralardir. Masalan, “sessiyani yopmoq” birikmasi barcha fanlardan muvaffaqiyatli o'tish ma'nosini anglatadi. “Yiqilmoq” fe'li esa imtihondan o'ta olmaslik ma'nosida qo'llanadi. Shuningdek, “peresdacha” so'zi qayta topshirish jarayonini bildiradi. Bu birlik rus tilidan kirib kelgan bo'lib, talabalar nutqida jargon sifatida faol ishlatiladi. Bundan tashqari, “stipka oldim” birikmasi stipendiya olishni, “avtomat qo'ydi” esa o'qituvchining imtihonsiz baho qo'yganini anglatadi. “Para” so'zi dars soati ma'nosida, “oyna qoldi” esa darsning bekor bo'lganini ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur birliklar adabiy til me'yoriga kirmasa-da, talabalar muhitida kommunikativ qulaylik yaratadi. Talabalar jargoni nutqni ixchamlashtiradi va tezkor axborot almashuvini ta'minlaydi. Biroq bunday birliklarning rasmiy nutqda yoki ilmiy matnda qo'llanishi maqsadga muvofiq emas. Shu bois talabalar vaziyatga qarab til birliklarini tanlay bilishlari lozim.

<sup>1</sup> Hozirgi o'zbek adbiy tili / Shavkat Rahmatullayev va boshq., Toshkent: „Universitet“ nashriyoti, 2006.320-b

<sup>2</sup> . O'zbek tilining leksik qatlamlari / E.Begmatov. Toshkent: O'zbekiston SSR „Fan“ nashriyoti, 1985. 199 b.

Varvarizm<sup>3</sup> — adabiy til me'yoriga zid ravishda, o'zbekcha muqobili bor bo'lgan chet so'zlarni nutqda ortiqcha qo'llashdir. Masalan, ayrim talabalar kundalik suhbatda “Bu juda super loyiha”, “Menda problem bor”, “U menga respect qildi”, “Deadline yaqin, stress bo'lyapti” kabi iboralarni qo'llaydilar. Holbuki, ushbu birliklarning o'zbekcha muqobillari — “a'lo”, “muammo”, “hurmat”, “topshirish muddati” kabi so'zlar mavjud. Shunga qaramay, chet til variantining ishlatilishi nutqda sun'iylik va ortiqcha ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi. Varvarizm hodisasi ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va norasmiy muloqot ta'sirida kengaymoqda. Ba'zi hollarda talabalar chet so'zlarni zamonaviylik belgisi sifatida qabul qiladilar. Biroq ilmiy va rasmiy uslubda bunday birliklardan foydalanish nutq madaniyati talablariga zid hisoblanadi.

*Shuni ta'kidlash joizki*, barcha chet so'zlar ham varvarizm hisoblanmaydi. Agar so'z tilimizga singib ketgan va umumxalq iste'moliga aylangan bo'lsa (masalan, “internet”, “fakultet”, “universitet”), u o'zlashma sifatida qabul qilinadi. Varvarizm esa aynan muqobili mavjud bo'lgan holatda chet til variantini noo'rin qo'llashdir. Demak, talabalar nutqida varvarizmning ko'payishi til me'yorlariga befarqlikni ko'rsatadi. Shuning uchun vaziyatga mos, adabiy til talablariga muvofiq so'z tanlash kommunikativ madaniyatning muhim ko'rsatkichidir. Talabaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning muloqot qobiliyatiga bog'liq. Dars jarayonida savol berish, fikr bildirish, bahs-munozarada ishtirok etish nutq madaniyatini talab qiladi. O'qituvchi bilan muloqotda hurmat, aniqlik va lo'ndalik muhimdir. Masalan, fikrni asosli dalillar bilan bayon qilish, mavzudan chetga chiqmaslik va adabiy til me'yorlariga amal qilish talabani boshqalardan ajratib turadi. Bu esa uning akademik obro'sini oshiradi.

Talabalar hayotida do'stona suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar ham muhim o'rin tutadi. Norasmiy muloqotda ko'proq hissiylik, qisqa gaplar va ramziy belgilar (emoji, qisqartmalar) ishlatiladi. Biroq doimiy ravishda shunday uslubdan foydalanish rasmiy nutqqa ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli talabalar vaziyatga mos nutq uslubini tanlay bilishi zarur. Bu lingvistik kompetensiyaning muhim ko'rsatkichidir.

*Muloqot orqali talaba:*

O'z fikrini aniq ifodalashni o'rganadi;

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

<sup>3</sup> Hozirga o'zbek adabiy tili / Shavkat Rahmatullayev. Toshkent: „Universitet“ nashriyoti, 2006.320-b.

Jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;

Liderlik sifatlarini namoyon etadi.

To'g'ri va samarali muloqot qila oladigan talaba kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi. Chunki har qanday kasb egasi uchun nutq madaniyati muhim hisoblanadi.

**Xulosa qilib aytganda**, talabalar hayotida muloqot lingvistikasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Til nafaqat aloqa vositasi, balki shaxsning ma'naviy va intellektual ko'zgusidir. Talaba o'z nutqiga e'tibor berar ekan, u nafaqat bilimli, balki madaniyatli va yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Andreyeva G. M. Ijtimoiy psixologiya / G. M. Andreyeva. – Moskva: “Prosveshchenie”, 2001.
2. Mahmudov N. Til va nutq / N. Mahmudov. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2004.
3. Nurmonov A., Rahmatullayev Sh., va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili / A. Nurmonov va boshq. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2006.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili / Sh. Rahmatullayev. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2006
6. G'oziyev E. Umumiy psixologiya / E. G'oziyev. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1998.